



## Organization of practical work through the applique in teamwork in elementary school technology lessons

Nargiza NIYAZMETOVA<sup>1</sup>

Tashkent State Pedagogical University

### ARTICLE INFO

#### *Article history:*

Received January 2024

Received in revised form

15 January 2024

Accepted 25 February 2024

Available online

15 March 2024

#### *Keywords:*

teamwork,  
applique,  
instrument,  
psychology,  
poster,  
creativity.

### ABSTRACT

This article explores how modern technologies facilitate practical work via team interaction in elementary school technology lessons. It also discusses the role of specialized appliques in enhancing teamwork processes.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss2/S-pp162-166>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Boshlang'ich sinflardagi texnologiya darslarida jamoaviy ishlash orqali applikatsiyadan amaliy ishlarni tashkil etish

### ANNOTATSIYA

#### *Kalit so'zlar:*

jamoaviy ishlash,  
applikatsiya,  
vosita,  
psixologiya,  
plakat,  
ijodkorlik.

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflardagi texnologiya darslarida jamoaviy ishlash orqali amaliy ishlarni tashkil etish va mazkur darslarda amaliy mashg'ulotlarni o'tish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari, jamoaviy ishlash jarayonlarida applikatsiyalardan foydalanish haqida fikrlar yuritilgan.

<sup>1</sup> Teacher, Tashkent State Pedagogical University.

## **Организация практической работы через аппликацию в командной работе на уроках технологии в начальной школе**

### **АННОТАЦИЯ**

**Ключевые слова:**

работа в команде,  
аппликация,  
инструмент,  
психология,  
плакат,  
творчество.

В данной статье раскрывается секрет применения современных технологий для организации практической работы через командное взаимодействие на уроках технологии в начальной школе. Также обсуждается использование специализированных приложений для улучшения процессов командной работы.

I. Falsafiy ma'noda jamoa – bu bir necha kishilardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad, muloqot va o'zaro faoliyat asosida tashkil etilgan guruhni anglatadi, sotsiologiyada mehnat jamoasi imkoniyatlari o'rganiladi, psixologiyada guruhdagi aloqadorlik, o'zaro ta'sir, pedagogikada bolalar jamoasining tashkil etilishi o'rganiladi.

Pedagogikada bolalar va o'quvchilar jamoasi tushunchasi bola rivojlanishida va hayotida jamoaning o'rni anglanishi natijasida paydo bo'lgan. Ya.A. Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida bolalarni bir-biriga ta'siri haqida fikr bildirib, o'qituvchilarga passiv o'quvchini faol o'quvchi bilan, aqliy rivojlanishini pastrog'i bilan, to'polonchini bosiq bola bilan birlashtirib o'qitish kerakligi haqida maslahatlar bergan. XX asr boshlariga kelib, pedagoglar jamoaviy munosabalarining rivojlanishini bola shaxsini rivojlanishida qulay sharoitlarni yaratishning asosiy yo'nalishi sifatida talqin qilganlar. Bolalar jamoasi kuchli tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Shuning uchun tarbiyaning asosiy vazifasi bolalar uchun qiziqarli, turli-tuman faoliyatni tashkil etish hisoblanadi.

Har bir amaliy dars o'quvchilarning bilim va malaka doiralarini kengaytirishi va mustahkamlashi, ularda barqaror ijodiy ko'nikma va qiziqish hosil qilishga yordam berishi lozim. Texnologiya amaliy ishlar ko'p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida hosil bo'ladi, bunda mashqlar sirasiga applikatsiyalar tayyorlashda jamoaviy ishlashni olib qarasaq, o'quvchilar jamoaviy ishlar jarayonida kimni qay darajada ijodkorlik xususiyati borligini, kimdir kreativ fikrlashga usta, kimdir esa applikatsiyani yasashga harakat qilish jarayonida ham ko'p bilimlarga ega bo'lishi mumkin.

Texnologiya ta'limi darslarida, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari juda kam. Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamoa bo'lib applikatsiya bajarish orqali ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning imkoniyatlari juda katta. Buni keyingi yillarda chet ellarda nashr qilingan turli xil qo'llanmalar misolida ko'rishimiz mumkin.

Jamoaviy ishlashda applikatsiya orqali amaliy ish olib borish bu yangiliklar mamlakatimiz ta'lim tizimidagi darslik va o'quv qo'llanmalarda haligacha o'z aksini topmagan. Bu orqali biz o'quvchilarga jamoaviy ahillikni o'rgatamiz bundan tashqari o'quvchilarning jamoaviy faoliyatga tayyorliklari, ruhiy tetiklikka, jamoa uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar mohiyatini anglash, ularni ardoqlash va o'z qadr-qimmatini baholash, jamoa a'zolari o'rtasida do'stlik, o'zaro birlik, hamjihatlik va yordam ko'rsatish tuyg'usining qaror topishini, jamoadagi ishchanlik, umumiy faoliyatni tashkil

etishda faollik ko'rsatish, jamoa a'zolarida o'z hissiy tuyg'ularini boshqara olish, muomala, muloqot, nutq, yurish-turish qoidalariga amal qilish ko'nikmasining shakllanishiga turtki bo'ladi. Jamoaviy ishlash to'g'risida amaliy ishlarni olib borganda ko'proq applikatsiya usulidan foydalanish o'quvchilarning ruhiyatiga va ularni ijodkorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, ular texnologiya faniga qiziqib fanning ich-ichiga kirib ketishiga turtki bo'ladi.

Applikatsiya tasvir hosil qilish texnikalaridan biri bo'lib, (lot. applicatio- biror narsaga joylamoq, yopishtirmoq) – rang-barang qog'oz yoki mato parchalarini yoki boshqa materiallarni fon (tag) sifatida qabul qilingan biror narsaga yopishtirib yoki tikib naqsh, gul, tasvir hosil qilish usuli; shu usulda hosil qilingan naqsh, gul, tasvir.

Tasvirlash texnikasining bir ko'rinishi sifatida applikatsiya juda qadim zamonlardan qo'llanilib kelingan va qadim davrlardan kiyim-kechaklar, poyafzal, mehnat qurollari va uy-ro'zg'or jihozlarini bezashda foydalanilgan. Applikatsiyalarning mavzulari sifatida dastlabki davrlarda qushlar, hayvonlar, insonlar, chiroyli o'simliklar va gullar tanlangan va shu tanlangan narsalar bo'yicha applikatsiya ishlari olib borilgan. Applikatsiyani bajarishda keyinchalik iplar, matolar, metall plastinkalar, biser va marjonlardan foydalanib boshlashgan.

Applikatsiya 2500-yil muqaddam ko'chmanchi xalqlar orasida paydo bo'lgan. Applikatsiya bilan kiyim-bosh, turar joylar bezatilgan. Bu ishda ular teri mo'yna, namatdan foydalanishgan. Piter Paul Rubens, daniyalik haykaltarosh Bertel Garvildson ishlari shular jumlasidandir. Mashhur ertakchi Gans Xristian Andersen o'z ertaklari motivlari asosida qog'ozdan applikatsiyalar qirqqan. Rassom F.P. Tolstoy XIX asrning birinchi yarmidagi qiyofa yaratuvchilarning eng mohir ustasi deyish mumkin. Uning 50 ta qiyofa ishi Ermitajda saqlanmoqda. Ko'plab grafik-rassomlar hozirgi kunda plakat tayyorlashda, kitoblarni bezash ishlarida siluetdan badiiy ifodalashning mustaqil vositasi sifatida applikatsiyalardan keng foydalanadilar. Applikatsiyaning rivojlanishi va tarixi bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida hozirgacha bu yo'nalishda o'zbek tilida yaratilgan, shu sohani ilmiy tadqiq qilingan adabiyotlarning juda kamligi sababli ba'zi muommolar kelib chiqishi ham mumkin. Ammo, biz pedagoglar har tamonlama yetuk bo'lishimiz uchun chet el adabiyotlariga yuzlanib ushbu mavzu bo'yicha ko'plab bilimlarga ega bo'lishimiz mumkin.



1-rasm

2-rasm

3-rasm

Yuqoridagi tasvirlangan rasmda oddiy qalam chiqindisi yoki burglar orqali ham ajoyib qo'l mehnatlarini yarata olamiz. Bundan ko'rinib turibdiki, applikasiya – badiiy asarlarni yaratishning eng sodda va oson usullaridan biridir, chunki bunda tasvirning realistik asosi saqlanadi. Biz applikasiya orqali faqat bezash maqsadlaridagina qolmay balki, ko'rgazmali qurollar, turli o'yinlar uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqlar, suvenirlar, devoriy gazetalar, stendlar, ko'rgazmalarni yaratishimiz mumkin.

Quyidagi rasmlarda qirqish anchagina murakkab ish bo'lib tasvirni qismlarga ajratish bilan aloqadordir. Bu turdagi applikasiyani bajarishda asosiy masala fonni tanlash muhimdir. Fon ifodalanadigan predmetlar rangidan ochroq bo'lishi kerak. Ana shunda predmet xuddi bo'rtib turgandek, yorqin ko'rinadi. Hammasi o'quvchilarning o'ylangan kompozitsiyaga bog'liq. Fonda joylashadigan detallar rangi ham shunday tanlanadi, detallarning tabiiy joylashishi va ular o'lchamlarining uyg'unligiga e'tibor berish asosiy hisoblanadi.



Maktablarda boshlang'ich sinf yoshdagi bolalarga ta'lim berishda applikasiya mashg'ulotlarining, jumladan applikasiya tayorlashning noan'anaviy texnikalaridan foydalanishning ijobiy ahamiyati ilmiy isbotlangan desak adashmagan bo'lamiz. Umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktagacha ta'lim muassasalarida applikasiyaga o'rgatish bugungi kunda alohida mashg'ulot shaklida bo'lmasa ham uni sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ko'rinishlari shaklida o'rgatish imkoniyatlari yaratilmoqda. Lekin hozirgacha ta'lim muassasalarida bolalar va o'quvchilarni noan'anaviy texnikada applikasiya bajarishga o'rgatish orqali ularning badiiy ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarni uchratmadik. Lekin kelajakda bunaqa tadqiqotlar olib borish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf texnologiya darslarida jamoaviy ishlash orqali applikasiya orqali amaliy ishlarni tashkil etish ta'lim va tarbiyaning asosiy vazifalari bolalarda buyumlar va atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini badiiy obrazlar yordamida ifodalash ko'nikmalari shakllantirish. Pedagog bolalarni badiiy ijodga o'rgatish jarayonida ularni atrofimizdagi olamga estetik munosabatda bo'lishni, bolalar ruhiy taassurotlarining boyishini, individual qiziqishlarini, qobiliyatlarining shakllanishiga yordamchi bo'lishi kerak.

**FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Sanakulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaquiova A.K. “Texnologiya” 2-sinf darsligi. T., “Sharq” . 2018-yil10
2. Sanakulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. Mehnat ta’limi 3-sinf darsligi. T.: “Sharq” . 2016-yil
3. Ro’ziyev E.I. Applikatsiya turlari va ulardan mehnat ta’limi hamda to`garak mashg`ulotlarida foydalanish metodikasi. “Pedagogik tadqiqotlar”. 2017,
4. Xaydarova M.D. “Applikatsiya ishlarini bajarish metodikasi”. BuxDU, 2022 6-bet.
5. S.Yuldoshyev, D Yakubova, N Niyazmetova. “Texnologiya va uni o`qitish metodikasi”. Darslik T,;TDPU 2022 yil.